

NEYROLINGVISTIKA PSIXOLINGVISTIKANING TARKIBIY QISMI SIFATIDA

Homidjonova Sadoqatxon Nomonovna

Fargʻona davlat universiteti,

Magistratura boʻlimi, lingvistika: oʻzbek tili yoʻnalishi magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning fanlararo integratsiyasi, ayniqsa neyrolingvistika fanining shakllanishi va rivojlanishi tahlil etilgan. Tilshunoslikning falsafa, psixologiya, nevrologiya, tibbiyot kabi fanlar bilan oʻzaro aloqalari asosida neyrolingvistikaning yuzaga kelishi, uning asosiy tadqiqot obyekti - afaziya, yaʼni nutqiy faoliyatning buzilish holatlari yoritilgan.

Kalit soʻzlar: : psixolingvistika, neyrolingvistika, nevrologiya, afaziya , neyropsixologiya, neyropedagogika.

Annotation: This article analyzes the interdisciplinary integration of modern linguistics, particularly the formation and development of neurolinguistics as a scientific field. It explores the connections between linguistics and other disciplines such as philosophy, psychology, neurology, and medicine, which have collectively contributed to the emergence of neurolinguistics. The primary object of study in this field is aphasia - disorders of speech activity.

Keywords: psycholinguistics, neurolinguistics, neurology, aphasia, neuropsychology, neuropedagogy.

Аннотация: В данной статье проанализирована междисциплинарная интеграция современной лингвистики, в частности, формирование и развитие нейролингвистики как науки. Рассмотрены связи лингвистики с такими науками, как философия, психология, неврология и медицина, а также на этой основе - возникновение нейролингвистики. Основной объект её исследования - афазия, то есть нарушения речевой деятельности.

Ключевые слова: психолингвистика, нейролингвистика, неврология, афазия, нейropsихология, нейропедагогика

Zamonaviy lingvistikaning rivojlanish bosqichi uning boshqa fanlar bilan tobora chuqurroq integratsiyalashuvini taqozo etmoqda. Tilshunoslik falsafa, psixologiya, nevrologiya, fiziologiya, tibbiyot kabi ko'plab fanlar bilan o'zaro munosabatga kirishgan holda, yangi fanlararo yo'nalishlarning shakllanishiga asos bo'ldi. Ayniqsa, inson miyasi faoliyatini, unda yuzaga keladigan nutqiy jarayonlarni va ularning buzilishi bilan bog'liq holatlarni o'rganishga qaratilgan neyrolingvistika fanining shakllanishi lingvistikaning fanlararo integratsiyadagi muhim bosqichidir.

Neyrolingvistika nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ega bo'lgan sohaga aylanib, bosh miya faoliyati, afaziya holatlari, nutq buzilishlarini aniqlash va ularni davolash masalalarini o'rganishga xizmat qiladi. U neyropsixologiya, neyropedagogika, kognitiv fanlar, shuningdek, til falsafasi bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu maqolada neyrolingvistika fanining shakllanishi, ilmiy asoslari, boshqa fanlar bilan aloqasi, rivojlanish tarixi, shuningdek, inson ongining til bilan bog'liq murakkab jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

Neyrolingvistika fanining shakllanishi va rivojlanishida ko'plab olimlarning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy asarlarida bosh miya faoliyati, uning nutqqa ta'siri va so'zlashuvdagi buzilishlar haqida muhim fikrlar ilgari surilgan. Biroq neyrolingvistika fan sifatida XIX asrda shakllangan. Neyrolingvistikaga zamonaviy ilmiy asos yaratgan ilk tadqiqotlar P. Broka (1861) va K. Vernike (1874) nomlari bilan bog'liq. Brokaning nutq ishlab chiqarishda chap bosh miya yarim sharining Broka markazi roli borasidagi kashfiyoti, Vernikening esa so'zlarni tushunishga mas'ul miya qismi haqida qilgan tadqiqotlari neyrolingvistika fanining poydevorini tashkil etdi. Ularning izidan A.R. Luriya tomonidan olib borilgan ishlar psixolingvistika va neyropsixologiya metodologik asoslarini ishlab chiqdi. Til falsafasi borasida V. fon Gumboldt tilni ruhiy faoliyat sifatida baholagan, uning fikricha, til inson tafakkurining mahsuli bo'lib, belgilarning (signallar) inson ongidagi aks etishini ta'minlaydi. F. de Sossyur esa til tizimi va nutq o'rtasidagi farqni asoslab, tilni ijtimoiy hodisa sifatida o'rgangan, bu esa neyrolingvistika va psixolingvistika uchun konseptual asos vazifasini bajargan.

Psixolingvistikada nutqiy hodisalar, nutq turlari, jumladan, yozma va ogʻzaki nutqiy jarayonlar oʻrganiladi.¹

A.A. Leontyev nutqiy faoliyat yaratilish jarayonining besh bosqichli modelini taklif qiladi.² Birinchi bosqichda olim shaxsning maʼlum bir mavzuga eʼtiborini (nutq niyatini) shakllantirishga sabab boʻlgan motivni aniqlaydi. Keyingi bosqich fikrning paydo boʻlishi bilan tavsiflanadi, bu yerda ifoda (tema) mavzusi va bu mavzu (rema) haqida aniq nima aytilishi kerakligi taʼkidlanadi.

Neyrolingvistika nazariyot va amaliyot bilan bogʻliq fan hisoblanadi. Inson miyasida yuz beradigan jarayonlarni oʻrganish, miyadagi nutqiy buzilish va turli nuqsonlar kelib chiqish sabablarini aniqlash va davolash neyrolingvistik tadqiqotlarning asosi hisoblanadi. Inson miyasidagi nutq hosil qiluvchi mexanizmlardagi buzilishlar va nuqsonlarni kelib chiqish sabablarini aniqlashda soʻz va gap tuzilishi muhim ahamiyatga ega boʻlib, kasallikning davolanish jarayonida alohida rol oʻynaydi.

Kognitiv lingvistika inson xotirasida tilning rolini tadqiq etishda oʻziga xos muhim vazifani bajaradi. Til fikrni shakllantiruvchi va ifodalovchi vositadir. Demak, tilshunoslik tilning tafakkur bilan aloqasini oʻrganar ekan, tafakkur qonuniyatlarini oʻrganuvchi mantiq va psixologiya fanlari bilan tutash nuqtalarga ega boʻladi.³ Shu oʻrinda aytish mumkin-ki, lingvistikaning psixologiya va nevrologiya bilan oʻzaro munosabati neyrolingvistikani yuzaga kelishiga sabab boʻldi. Buning natijasida neyrolingvistika alohida fan sifatida tadqiqotchilarning oʻrganish obyektiga aylandi. Bu fan nutqiy faoliyat bosh miyaning mahsuli ekani, miya kasallanishining nutqiy faoliyatga taʼsiri masalalarini oʻrganadi. Sodda qilib aytganda, neyrolingvistikaning oʻrganish obʼekti afaziyadir.

Avallo shuni taʼkidlash joizki, inson bosh miya yarim sharlarining har ikkalasi ham murakkab kongnitiv faoliyat jarayonlarida ishtirok etsa-da, ularning strategiyasi bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Chap yarim sharlari yetakchi boʻlgan odamlar

¹ Usmonova Sh. Psixolingvistika Maʼruza kurslari. – Toshkent: Universitet, 2014.

² Леонтьев, А.А. Язык, речь и речевая деятельность [Текст] / А. А. Леонтьев. - М. : Просвещение, 1969. - 110с

³ Нурмонов А. Танланган асарлар. 1 - жилд. Академнашр. 2012. 126-бет.

ma'lumotlarni ketma-ket va mantiqiy tahlil qilishi hamda tahlilning xususiy bo'laklardan umumiyga yo'nalganligi bilan ajralib tursalar, o'ng yarim sharlari yetakchi bo'lganlar olamni intuitiv va umumiy yaxlitlikda anglashi hamda tafakkurining umumiydan xususiy bo'laklarni tahlil qilishga moyilligi bilan farq qiladilar.⁴ Bu holat ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirish intuitiv-hissiy (kommunikativ) hamda mantiqiy-ratsional (nokommunikativ) yo'llar bilan sodir etishida namoyon bo'ladi. Bu tadqiqotlar shu kungacha neyropedagogika va neyropsixologiya o'rganish obyektlari sanalib kelinardi, tahlillar shuni ko'rsatdiki, neyropedagogika hamda neyropsixologiya bilan bir vaqtning o'zida neyrolingvistika ham inson bosh miya faoliyatini o'rganish jarayonida ishtirok etishi va har ikkala fan bilan bu jihatdan umumiy o'xshash tomonlari mavjudligini ko'rsatadi.⁵

Ko'rinadiki, neyrolingvistika har jihatdan psixolingvistika bilan umumiylik asoslarga egaligi bilan bir nuqtada kesishadi. U har qanday holatda ham eksperimental psixologiya an'anaviy metodlari, shuningdek, tilning kognitiv mexanizmlari bilan bog'liq faoliyat yuritadi.

Muhimi shundaki, hozirda psixoneyrolingvistik nazariyalar o'rganish obyekti umumiy, tajriba maydonida bir-biri bilan o'zaro yaqin aloqada bo'lganligi uchun bu ikki fanning hamkorligi o'z isbotini topmoqda.

Avalo, neyrolingvistika inson bosh miya sistemasida yuz beradigan o'zgarishlarni insonning nutqiy va yozma jarayonidagi holatni aks ettiradi. Inson o'z navbatida so'z va jumlaning qanday ifoda etilishi bilan bosh miyadagi akustik obrazlarda namoyon bo'ladi va ruhiy emotsional holatda aks etadi. Bu esa, bosh miyadagi nutqiy va yozma jarayondagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarning tahlilida kuzatiladi. Albatta, nutq madaniyati, yozish madaniyati, shuningdek, insonning boy tarixiy an'analari ham neyrolingvistik jarayonni his etishimiz mumkin. Avlodlar

⁴ Трошин О. В. Нейропсихология детского возраста. - Нижний Новгород : НГМА, 2000. - С.47.

⁵ <https://uz.wikipedia.org/wiki/Neyrolingvistika>

o'rtasidagi tarixiy yozma manbalarga ham inson psixologiyasi o'z ta'sirini o'tkazganligini kuzatishimiz mumkin.

Tarixiy manbalarni kuzatar ekanmiz bunga ko'plab misollarga duch kelamiz. Masalan, Bobur bilan bir davrda yashab ijod qilgan shoir Muhammad Solihning Boburga bo'lgan ichki munosabatini she'rida aks ettiradi.

Nutqiy faoliyat orqali inson o'zi bevosita guvoh bo'lmagan narsa-hodisa, harakat-holat, belgi-xususiyatlar haqida axborotga ega bo'ladi. Ajdodlar qo'lga kiritgan hayotiy tajribalarni to'plab, kelajak avlodga yetkazib beradi.⁶ Chunki, bosh miya funksiyasida fikrlash jarayoni nutq hamda yozuvga ta'sir etadi va ruhiy emotsionallikka yo'l qo'yiladi. Bunday xulosaga kelish neyrolingvistikaning psixolingvistika, lingvistik genisologiya, kognolingvistika, sotsiolingvistika, falsafa va mantiqning nazariy va amaliy natijalari bilan bog'liqligi asosida yuzaga keladi. Ko'rinadiki, insonning ongi faqat bir fannigina emas, balki boshqa fanlarning ham o'rganish obyekti sanaladi.

Professor A.Nurmonov ta'kidlaganidek, inson o'zini qurshab turgan olamni bilish jarayonida olam unsurlarini obrazlar orqali ongida aks ettiradi va bu ongda aks etgan olam unsurlari belgi orqali ifodalanadi. Sotsial axborotning har qanday moddiy ifodalovchilari belgi hisoblanadi.⁷

ADABIYOTLAR

1. Нурмонов А. Танланган асарлар. 1 - жилд. Академнашр. 2012.
2. Т.В. Ахутина Порождение речи. Нейролингвистический анализ текста. 2012г.
3. Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Андижон. 2006.
4. В. фон Гумбольдт. Избранные труды по языкознанию. М., 1984. С. 3001.

⁶ Қаранг: Нурмонов А. Ўша асар. Ўша жилд. 31 – бет.

⁷ Нурмонов А. Структур тилшунослик: илдизлари ва йўналишлари. Андижон. 2006. 42-бет.

5. Гумбольдт В. Фон. Язык и философия культуры. М.: Высшая школа, 1985. 44 с
6. Ф. де Соссюр. Курс общей лингвистики. Екатеринбург. Изд-во Уральского университета, 1998. 137 с
7. <https://uz.wikipedia.org/wiki/> O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000